



UDK: 301.085:15(045)

Iroda RASULOVA,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Psixologiya fanlari doktori DSc professor M.Fayziyeva taqrizi asosida

PSIXOLOGIYADA SHAXSDAGI AGRESSIYANI ANIQLASH JARAYONI MUAMMOSINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotsatsiya

Maqolada agressiyaning psixologik mohiyati, xususan, passiv va aktiv shakllari, ularning ijtimoiy, emotsional va kognitiv jarayonlardagi ifodasi yoritiladi. A.G. Bass va S. Feshbach tomonidan ilgari surilgan agressiya turlari hamda ularning motivatsion va maqsad jihatidan farqlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda aggressiv xulq-atvorning ochiq va yashirin ko'rinishlari, ularning jinoyatchilik bilan bog'liqligi hamda shaxs psixikasiga ta'siri misollar asosida izohlanadi. **Kalit so'zlar:** Agressiya, passiv agressiya, aktiv agressiya, shaxs xulq-atvori, dushmanlik, psixologik tahlil, jinoyatchilik.

SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF THE PROBLEM OF DETERMINING AGGRESSION IN PERSON IN PSYCHOLOGY

Annotation

The article explores the psychological essence of aggression, focusing on its passive and active forms as well as their manifestation in social, emotional, and cognitive processes. It analyzes A.G. Bass's and S. Feshbach's classifications of aggression, highlighting differences in motivation and purpose. The study also examines the open and hidden expressions of aggressive behavior in family and social relations, their connection to criminal acts, and their impact on individual psychology through practical examples.

Key words: Aggression, passive aggression, active aggression, personality behavior, hostility, psychological analysis, criminality.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОБЛЕМЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ АГРЕССИИ У ЧЕЛОВЕКА В ПСИХОЛОГИИ

Аннотация

В статье рассматривается психологическая сущность агрессии, особенно её пассивные и активные формы, а также проявления в социальных, эмоциональных и когнитивных процессах. Анализируются типологии агрессии, предложенные А.Г. Бассом и С. Фешбахом, с учётом различий по мотивации и целям. Также исследуются открытые и скрытые формы агрессивного поведения в семейных и социальных отношениях, их связь с преступностью и влияние на психику личности, иллюстрируемые конкретными примерами.

Ключевые слова: Агрессия, пассивная агрессия, активная агрессия, поведение личности, враждебность, психологический анализ, преступность.

Ko'pchilik psixologlar buni agressiyaning alohida ko'rinishi sifatida, "bu aggressiv qarshilik, ammo u hech kimning joniga tajovvuz qiladigan yoki zahmat yetkazadigan agressiya emas, shuning uchun uni maqsad jihatidan agressiyaning passiv ko'rinishi, to'g'ridan-to'g'ri passiv agressiya deyish (ochiq passiv agressiya) maqsadga muvofiq", - deb ta'rif beradilar.

Psixologik tadqiqotlarda e'tirof etilishicha, qanchalik qiziqarli bo'lmasin passiv agressiya o'z-o'zidan, umuman olganda jinoyatchilik masalasini hal qilish jarayonida u relevant hisoblanadi.

1.1-jadval.

A.G.Bass bo'yicha shaxs agressiyasining turlari

Agressiya turlari	Agressor xatti-harakatlari ko'rinishi			
	To'g'ridan-to'g'ri faol agressiya	Bilvosita agressiya	To'g'ridan-to'g'ri sust agressiya	Bilvosita sust agressiya
Jismoniy agressiya	Zarba berish	Oyog'idan chalish	Xalaqit berish, ziyon yetkazish, to'siqlar	Vazifani bajarishdan bosh tortish
Verbal agressiya	Jabrlanuvchini haqorat qilish, nafsoniyatiga tegish.	Yomon mish-mishlar, yomon gap so'zlarni tarqatish.	So'zlashishdan bosh tortish	Kelishishni xohlamaslik yozma yoki og'zaki

Shu o'rinda bizni faqatgina biron-bir ziyon yetkazish va huquqbuzarlik, konstitutsion huquqlarimizga zid harakatlarni qiluvchi tajovvuzkorlikni aniqlash, tadqiq etish qiziqtiradi. Ostonada o'tirgan qo'shniga qaytsak, u mulkka egalik huquqini buzishda ayblanib, uning aggressiv maqsadini aniqlashimiz mumkin. Umuman olganda aggressiv harakat, biz ko'rmoqchi bo'lgan tajovvuzkorliklar turi "passiv agressiya" tipiga kirmaydi.

Oilaviy munosabatlar misolida shaxsdagi agressiya ko'rinishlarini turlarga ajratishda, biz, A.G.Bass (1971) taklif etgan model bilan tanishib chiqamiz (1.1-jadvalga qarang) [9].

1.1-jadvaldan, biz osongina shaxs o'zi bilan bog'liq yoki chalkash holatlarni ajrata olashimiz mumkin. Ushbu farqlanishlar, faqatgina agressiv holatlarning ko'rinishlari turli-tumani va ularni aniqlash anchayin murakkab ekanligini ko'rsatadi. Shu jihatdan olib qaraganda qator ijtimoiy psixologlar o'z tadqiqotlarida, "kishi agressiyasini aniqlash anchagina qiyin", degan xulosani ilgari surishgan.

S.Feshbach (1964) izlanishlarida, agressiyani qoniqarli tarzda aniqlash va turlarga ajratish uchun uni 2 ta tipga bo'lib ko'rsatadi:

- tajovvuzkor (dushmanlik);
- instrumental agressiya.

Bu 2 ta tipni, S.Feshbach, maqsadi va rag'batlanishiga (bu yerda agressorga to'lanadigan "haq" nazarda tutilmoqda) ko'ra ajratgan [8].

Biz tadqiqot ishimizda asosan, agressiyaning "tajovvuzkor" ko'rinishini, ya'ni dushmanlik, ziyon yetkazish turini ko'rib chiqamiz. S.Feshbachning fikricha, bu ko'pincha g'azab qo'zg'alganda sodir etiladigan tajovvuzkorlik bo'lib, u aversiv stimuly va ta'sirotlar (ta'sir etish), ya'ni haqoratlash, yerga urish maqsadidagi yomonlash, tuhmat, mish-mishlar, gap-so'zlar va jismoniy hujum, shaxsiy omadsizliklarda namoyon bo'ladi.

Bunda agressorning maqsadi jabrlanuvchini azob chekishga majbur etish sanaladi. S.Feshbachning o'z tadqiqotlarida, ko'p sonli qotillar zo'rlash, nomusga tegish va boshqa og'ir jinoyatlarni, ya'ni "jabrlanuvchiga ziyon-zahmat yetkazish maqsadidagi harakatlarni dushmanlik agressiyasi deb ataydi". Sababi bunday hollarda agressorning tezkor va jahl ustida harakati kuzatiladi (kuchli hayajonda yoki tashqi taassurot kishni izdan chiqaradi) hamda xatti-harakatlarda tashqi frustratsiya ta'siri bilan bog'liqlik borligi ko'rinadi (masalan, ishsiz qolgan oila boquvchisining hayajonli chiqishi, hatto oldidan chiqib qolgan mototsikl haydovchisini otib qo'yishi va bundan o'zi qoniqish hosil qilib, jamiyatdan o'ch oldim deb o'ylashini misol qilish mumkin) [1].

S.Feshbach taklif etgan, ikkinchi tur – instrumental agressiya – shaxsning biror narsani (pul, taqinchoqlar, joyni, hududni) qo'lga kiritish maqsadidagi jinoyati hisoblanadi. U istalgan sharoitda ham biror narsani qo'lga kiritishga qaratiladi

15-jadval

Oiladagi shaxslararo munosabatlarda kuzatiladigan salbiy-axloqiy sifatlar (% hisobida) n=300

№	Salbiy sifatlar	Doimo	Ba'zan	Javob berish qiyin	Yo'q uchramaydi	Umu-man yo'q
1.	Qo'pol muomala	6,0	14,0	17,0	35,0	28,0
2.	Jizzakilik	11,0	12,0	10,0	36,0	31,0
3.	O'zgani tushunmaslik	12,0	14,0	12,0	37,0	25,0
4.	Betakallullik	7,0	12,0	16,0	40,0	25,0
5.	Uquvsizlik	9,0	11,0	11,0	42,0	27,0
6.	Bilimsizlik	8,0	11,0	12,0	45,0	24,0
7.	Didsizlik	6,0	8,0	13,0	44,0	29,0
8.	Beparvolik	8,0	11,0	13,0	37,0	31,0
9.	Loqaydlik	7,0	9,0	12,0	42,0	30,0
10.	E'tiborsizlik	12,0	15,0	16,0	33,0	24,0
11.	Besabrlilik	16,0	22,0	8,0	32,0	22,0
12.	Qizg'anchilik	12,0	14,0	17,0	31,0	26,0
13.	Munofiqlik	4,0	6,0	11,0	42,0	37,0
14.	Uyatsizlik	5,0	11,0	14,0	34,0	36,0
15.	Buzaqilik	1,3	2,7	9,0	31,0	56,0

Aslida insonlarda uchraydigan axloqiy illatlar ko'pincha inson tarbiyaviy jarayonlariga e'tiborsizlik oqibatida, uning jamoasidagi (oilal, bog'cha, maktab, mahalla) nosog'lom psixologik muhit ta'sirida, shuningdek, uning yashash jarayonida uning ko'z o'ngida yuzaga keladigan turli muammolar, qiyinchiliklar, kamchiliklar va boshqa sabablar asosida shakllanadi. Keyinchalik uning jamiyatda shaxslararo munosabatlari jarayonida unda yetarli darajada shakllanmagan imkoniyatlar, turlicha muammolar, ziddiyatlar va kelishmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lib qoladi.

va yo'ldagi to'siqlarni yo'q qiladi (sindiradi, buzadi, odamga esa majburan hujum qiladi). S.Feshbachning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, instrumental agressor bировga zahmat yetkazish maqsadida emas, faqat biror narsaga ega bo'lish maqsadida buzg'unchilik qiladi. Agar oldidan odam chiqib, to'siq bo'lsa, avvaldan ziyon yetkazish, azob berishni rejalashtirmagan holda sovuqqonlik bilan uni yo'q qiladi[4].

Devid N. Daniels, Marshall F. Gilula va Frank M. Ochberglar agressiyaga: "Boshqa bировga jismoniy, ruhiy ziyon yetkazish maqsadida qilingan harakat, biror shaxs yoki obyektini yo'q qilish maqsadidagi urinish deya, ta'rif berishadi.

Bu A.G.Bass tipologiyasidagi hamma turlarni o'z ichiga oladi. Bu agressiya holatlari hammasi ham kriminal bo'lavermaydi. Lekin, mualliflar, bunday zo'ravonliklarni hammasini buzg'unchi jismoniy agressiya, ya'ni atayin boshqa bировga yo'q qilish maqsadidagi harakat deb ta'riflashgan. Sababi, bировga ziyon yetkazish avvaldan rejalashtirilgan yoki tasodifiy uzoq davom etuvchi yoki qisqa muddatli, juda tez sodir etiluvchi yoki o'zini boshqara olmaydigan darajalarda ham bo'lishi mumkin. Bu doimo jabrlanuvchiga zarar yetkazuvchi yo'q qiluvchi yoki shunday harakatga intiluvchi bo'ladi" [2]

O.Kernberg psixoanalizning ikki shoxchasini o'zaro birlashtirdi, ya'ni "Mayllar nazariyasi" bilan "Obyektiv munosabatlar nazariyasi"ni birgalikda rivojlanishini ta'minladi. U ikkita tayanch g'oyadan kelib chiqdi:

birinchisi – insonda ikkita mayl mavjud – libido va agressiya;

ikkinchisi – menrepresentatsiya obyekt-representatsiya bilan ma'lum munosabatlarda mavjud [8].

Oilada zo'ravonlik yuzaga kelishida shaxsga bog'liq bo'lgan sifatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, salbiy xulq atvor sifatlarini namoyon etish nafaqat nizolarni, balki zo'ravonlikni qo'zg'atishga va qo'llashga olib keladi. Shuning uchun shaxslararo munosabat va o'zaro idrok qilishni o'rganish imkonini beradigan psixologik testdan foydalandik. Nikoh va oiladagi destabillashuvni munosabatlarda zo'riqlikni keltirib chiqaradi va oiladagi destabillashuv manbaiga aylinishiga turtki bo'ladigan salbiy sifatlarini olindi.

Afsuski, ana shunday salbiy sifatlarini (illatlarni) orttirgan yoshlar ham barcha fuqarolar qatorida oila quradilar. Buning natijasida o'z hayot yo'lini bir umrga bog'lagan er-xotinning yoki er-xotin bilan uning boshqa a'zolari o'zaro munosabatlarida ularda avvaldan orttirilgan salbiy-axloqiy illatlar oila barqarorligining o'zgarishiga, unda ziddiyatlar, kelishmovchiliklar yuz berishiga, zo'ravonlik xulqini namoyon bo'lishiga va hatto oilalarning buzilib ketishiga olib kelishi mumkin.

Insonlarda shakllangan salbiy-axloqiy sifatlarini ijtimoiy- psixologik asoslarini o'rganish, ularni kelib chiqish

sabablarini aniqlash, rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish unda yuzaga keladigan kelishmovchiliklar va ziddiyatlarning oldini olishga, uni buzilishlardan saqlab qolishga, uning barqarorligini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Biz tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda oiladagi shaxslararo munosabatlarda uchraydigan salbiy-axloqiy illatlarni ham o'rganishga harakat qildik.

Respondentlarga "Sizning oilangizda zo'ravonlik xulqi o'zaro munosabatlarda qanday sabablar asosida ziddiyatlar, kelishmovchiliklar ko'rinishida yuzaga kelishi mumkin?" savol bilan murojaat qilganimizda, ular besabrlilik, o'zgan tushunmaslik, e'tiborsizlik, qizg'anchilik, jizzakilik, quvvsizlik, bilimsizlik, beparvolik, loqaydlik, qo'pol muomala sababli yuzaga kelishini, ba'zi oilalarda betakalluflik, didsizlik, uyatsizlik, munofiqlik va hatto buzuqlik tufayli namoyon bo'lishini e'tirof etdilar.

Shuningdek, er-xotin munosabatlarida liderlikka moyillik, hukmronlik, zulmkorlik, yagona maqsad sari intilishda birlikning yetishmasligi, mustaqilikka intilish tuyg'usning ustunlik qilishi ular o'rtasida nizo chiqishiga so'zsi sabab bo'ladi.

Xulosa. Shaxslararo zo'ravonlikka moyil xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari (oilaviy munosabatlar misolida) mavzusini o'rganishga doir ilmiy-nazariy, empirik ma'lumotlarni tizimlashtirish asosida qo'yidagi xulosalarni shakllantirdik:

1. Oilaviy munosabatlarini muvaffaqiyatini saqlash va mustahkamlashda milliy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Milliy qadriyatlar oilaviy munosabatlardagi er-xotinning xatti-harakatlarini rag'batlantirish, hissiy va oqilona tartibga solish ijtimoiy-psixologik va amaliy ahamiyat egadir.

2. Tadqiqotda oilada shaxslararo zo'rlik va zo'ravonlik tushunchasining tarkibiy qismlari: Zo'rlik bu majburlash, qo'rqitish bilan jabrlanuvchining sog'lig'i, hayotiga qarshi qaratilgan g'ayriijtimoiy harakat sifatida his qilish va boshqa shu kabi atamalar mohiyati ochib berildi. Shuningdek, haqoratlash, majburlash, zo'rqlash, iqtisodiy cheklovlar qo'yish, muntazam ruhiy qiynoqqa solish kabi holatlar ham zo'ravonlik sifatida namoyon bo'lishi urganildi.

3. Oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan zo'ravonlik iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar, fe'l-atvorning mos kelmasligi, bolalar tarbiyasiga munosabat ota-ona uyga bo'lgan oilalarda bo'lishi aniqlangan. Bu esa oilada sog'lom munosabatni shakllantirishga profilaktika va reabilitatsiya masalalarini qo'llash zaruratini yuzaga keltirdi.

3. Mavjud shaxslararo zo'ravonlikni oilaviy munosabatlarda yuzaga kelishini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlili quyidagilarning ta'siri bilan tushuntiradi: zo'ravonlik jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik) sifatida paydo bo'ladi;

Tazyiq — sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik, g'ayriijtimoiy xulq-atvor — shaxsning jamiyatda qabul qilingan norma va qoidalarni buzishi bilan ifodalanuvchi shaxsiy xulq-atvori, harakati yoki harakatsizligi, hayot tarzi; va boshqa sabablar ta'sirida yuz beradi.

4. Oilada shaxslararo zo'ravonlikni bolaga nisbatan yuzaga kelishi sabablari bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarda tegishli bilim, ko'nikma va malakalarning yetishmasligi, bolalarga nisbatan jismoniy va ruhiy ruhiy zo'ravonlikning oldini olish ularning har tomonlama huquqiy himoyasini ta'minlash uchun zo'ravonlik qanday shakllarda bo'lishi mumkinligini bilishi, zo'ravonlik xavfi yuqori bo'lgan vaziyatlarni aniqlay olishi, bolalar va kattalar bilan maqsadli suhbatlar o'tkazish malakasiga ega bo'lishi kerakligi tadqiqotimizda aniqlandi.

5. Bolaga nisbatan zo'ravonlikni namoyon bo'lishida ota-ona munosabatlari ta'sirini o'rganish, oila-turmush munosabatlari doirasidagi muammolar o'zining ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Oilada turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan zo'ravonlik yuzaga kelishida oilada milliy-urf odatlarning yo'qligi hamda islomda belgilab berilgan ta'lim va tarbiyaning sustligi sabab bo'ladi. Shundan kelib chiqib oilada sodir etiladigan zo'ravonliklar oqibatida shaxsga ruhiyatiga (psixik) ta'sir ko'rsatish, qo'rqitib bo'ysundirish, majburlash, xo'rqlash, jabr-zulm qilish, zo'ravonlik qilish, sirini fosh etishni aytib qo'rqitish, uydan haydab yuborishga xarakter qilish, bolalarni kaltaklab alamini ulardan olish, ojiz ahvolda qoldirish yoxud o'ziga bo'ysundirish shakllarida namoyon bo'lishi yuqoriligi aniqlandi.

6. Zo'ravonlikning namoyon bo'lishi profilaktikasi va ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasi ishini samarali tashkil etilishiga turli tizim mutaxassislari va aholining bilimlari sayoz ekanligi targ'ib etilmaganligi ma'lum bo'ladi.

Tadqiqot natijalari va ular asosida shakllantirilgan umumiy xulosalar qo'yidagi amaliy tavsiyalarni taklif etish imkonini berdi:

1. Tadqiqotda shaxslararo zo'ravonlikka moyil hулq-atvor shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari oilaviy munosabatlar misolida bo'yicha aniqlangan natijalardan amaliyotchi psixologlar, pedagog-murabbiylar, mahalla mutaxassislari jamiyatda tarbiyaviy jarayonni amalga oshirish uchun psixoproflaktik (OAVda chiqishlar), psixokonsultatsiya va psixokorreksiyada foydalanishi maqsadga muvofiq.

2. Ta'lim-tarbiya jarayonida amaliyotchi psixologlar bolaga nisbatan zo'ravonlikni namoyon bo'lishida ota-ona munosabatlari ta'sirini o'rganish, oila-turmush munosabatlardagi mavjud muammolarni hamkorlik asosida tahlil etish orqali o'quvchilar bilan korreksion ishlar olib borishda unga alohida emas, balki mikro-, referent guruh orqali ta'sir ko'rsatish samarali natija beradi.

3. Zo'ravonlikka moyil xulq-atvorning oilaviy munosabatlardagi ijtimoiy psixologik xususiyatlari o'ch olish, bo'ysundirish, rashk, mol-mulkka ega bo'lish, jabrlanuvchidan qutulish kabi motivlar hamda oilaviy qadriyatlarining pasayishi, begonalashuv, salbiy tarbiya va munosabat oqibatlari ilmiy tadqiqot natijalariga tayangan holda asosiy omil ekanligi isbotlangan.

4. Oilada zo'ravonlikka duch kelgan shaxslarning psixologik profilaktikasiga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan, joriy etish samaradorligi aniqlangan.

5. Oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan zo'ravonlik sabablari orasida er-xotin munosabatlarida agressiv xulq omillari, zo'ravonlik xulqi oqibatlari keskinlashayotgan ziddiyatga (er-xotinlar o'rtasidagi munosabatlar) bir-birini tushunmaslik oiladagi shaxslararo munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar er yoki xotinning xarakter xususiyatlariga o'ziga xos tarzda bog'liqligi ko'rsatilgan.

ADABIYOTLAR

1. Butayeva U.A. Shaxs psixologiyasi. Pedagog xodimlar va psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU, 2021. – 45-bet.

2. Бартол, Курт. Психология криминального поведения / Курт Бартол. – 7. междунар. изд. – СПб.: Прайм-Еврознак; М.: ОЛМА-ПРЕСС, 2004 (ПФ Красный пролетарий). – 352 с.
3. Loeber, R., & Stouthamer-Loeber, M. (1987). Prediction. In H. C. Quay (Ed.), *Handbook of juvenile delinquency* (pp. 325-382).
4. Qosimova X.M. (2022) Oiladagi Gender zo‘ravnlik va maktabda o‘quvchilar orasidagi Bulling zo‘ravnlik sabablari, oqibatlari va ularning oldini olish. Ta‘lim fidoyilari, 2022, (March) 68-71 // <https://cyberleninka.ru/article/n/oiladagi-gender-zo-ravnlik-va-maktabda-o-quvchilar-orasidagi-bulling-zo-ravnlik-sabablari-oqibatlari-va-ularning-oldini-olish/viewer>
5. Ziyavutdinova X.Sh. (2021) O‘zbek oilalaridagi ayollarga nisbatan zo‘ravnlikning ijtimoiy psixologik asoslari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2021, (November) 225-230 //
6. Imomova, Gulchehra. "Literary-Artistical Synthesis Opportunities." *International Journal on Integrated Education* 4.6: 79-85.
7. Imomova, G. Literary-Artistical Synthesis Opportunities. *International Journal on Integrated Education*, 4(6), 79-85.
8. Feshbach, S. (1964). The function of aggression and the regulation of the aggressive drive. *Psychological Review*, 71, 257-272.